

O'RGIMCHAKSIMONLAR SINFINING NOYOB VAKILI – QORAQURT

Ruiddinov Asilbek Husan o'g'li

Qarshi davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Avvaldan insonlar qoraqurt chaqishidan ko'p zarar ko'rib kelganlar. Qoraqurt chaqishidan zaharlangan insonlar orasida o'lim holatlari ham ko'p bor kuzatilgan. Hozirgi kunda biologiya, meditsina fanlarining turli tarmoqlari rivojlanishi tufayli qoraqurt va boshqa zaharli jonzotlarning zahriga qarshi zardoblar foydalanilmoqda.

Kalit so'zlar: *Qoraqurt, urg'ochi, erkak, zahar, tabiat, yashash tarzi, zardob, tog', tur, o'rgimchaksimon.*

ABSTRACT

From the beginning, people suffered a lot from blackworm bites. There have been many cases of death among people poisoned by blackworm bites. Currently, due to the development of various branches of biology and medicine, serums against the poison of blackworms and other poisonous creatures are used.

Key words: *Blackworm, female, male, poison, nature, lifestyle, serum, mountain, species, arachnid.*

KIRISH

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining hayvonot dunyosi boy va rang barangligi bilan ajralib turadi. XX asrning 60-70 yillar ichida tabiat resurslarini talon taroj qilish, qishloq xo'jaligini yuritishdagi ayrim kamchiliklar suv resurslariga nisbatan noto'g'ri munosabat, tirik tabiatning boshqa qismlari bilan birga hayvonot olamiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Albatta bundan O'zbekiston o'rgimchaksimonlar sinfi vakillari ham benasib qo'lmadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni demokratlashtirish va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni tobora takomillashtirib bormoqda. Respublikamizda yovvoyi tabiatni saqlab qolish maqsadida "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992), dagi qonunning ishlab chiqarilishi respublikamiz tabiatini muhofaza qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda 15 turdagi zaharli o'rgimchaksimonlar orasida qoraqurt o'zining kuchli zahar ta'siriga ega ekanligi va yashash tarzi bilan boshqa zaharli o'rgimchak turlaridan ajralib turadi.

Qoraqurt so'zi turk tilidan olingan bo'lib, qora hasharot ma'nosini bildiradi. Boshqa ma'nosi esa, "qora beva" deb yuritiladi. Uning qora beva deb atalishiga sabab,

urug‘langan urg‘ochi qoraqurt qochishga ulgurmagan erkak qoraqurti yeb qo‘yadi. Shu tariqa urg‘ochi qoraqurt “beva” bo‘lib qoladi.

Bu turni O‘zbekistonning cho‘l - adirlari, tog‘ yon bag‘irlarida, ko‘l, daryo bo‘ylarida, o‘rmonlarda va eski tashlandiq binolarda qayd qilish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qadim zamonlardan beri insonlar qoraqurt chaqishidan ko‘p zarar ko‘rib kelganlar. Qoraqurt chaqishidan zaharlangan inson, ko‘ngilsiz hodisalarga uchragan, o‘lim holatlari ham ko‘p bor kuzatilgan.

Keyingi yillarda biologiya, meditsina fanlarining turli tarmoqlari rivojlanishi tufayli qoraqurt va boshqa zaharli jonzotlarning zahriga qarshi zardoblar ishlab chiqilgan.

Qoraqurtlar O‘zbekistonning 200 dan ortiq hududlarida qayd etilgan. Ammo, hamma joyda ham ular bir tekis tarqalmagan. Jumladan: Surxondaryo viloyatining Sherobod, Derbent, Sayrob; Qashqadaryo viloyatining Nishon, Tolimarjon, Muborak, G‘uzor; Buxoro viloyatining Qorovulbozor, Kogon; Samarqand viloyatining Nurobod, Urgut; Jizzax viloyatining Qizulqum, Dashtobod, Zomin; Namangan viloyatining Chust, Pop; Farg‘ona viloyatining Rishton tuman hududlarida keng tarqalganligi ilmiy manbalarda keltirilgan.

Tabiatda tarqalgan hayvonlarni tur sonini saqlash, ko‘paytirish va muhofaza qilish zamonaviy zoologiyaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Buning uchun avvalambor ushbu hayvon turlarini biogeotsenozlarda tarqalish qonuniyatlarini, o‘ziga xos bioekologik xususiyatlarini atroflicha o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Каримова Р.Р., Рахматуллаев А.Ю., Эргашев Н.Э. «Экология и кадастр паукообразных Узбекистана». 8-я Пушкинская конференция школа молодых ученых – Биология наука ХХИ века. 20 – 24 мая 2002 г. Пушкина. Т. 2, с 74-75.
2. Михайлов К.Г. «Католог пауков (*Арачница*, *Аранеи*) территорий бывшего Советского Союза. Москва, 1997, 416 с.
3. Хамраев А.Ш., Боқоев С.Б., Рахматуллаев А.Ю., Жугинисов Т.И., Рустамов Қ.Ж. “Ўзбекистоннинг заҳарли ўргимчаклари” Бухоро, 2009, 56 б.
4. Эргашев Н.Э. «Экология ядовитых пауков Узбекистана». Ташкент, Фан, 1990,. 189 с.
5. Рахматуллаев А.Ю., Давронов Б.О.Ўзбекистоннинг заҳарли ўргимчаклари. Ўқув - услубий қўлланма. “Насаф” нашриёти, Қарши, 2019. 80 б.